

## **GENDER TENGLIK FENOMENINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: ANTIK DAVRDAN ZAMONAVIY TENDENSIYALARGACHA**

Termiz davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti  
Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi  
4-bosqich talabalari **Salayeva Aziza**  
**Rahmonberdiyev Abdulla**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender tenglik fenomenining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari tizimli tarixiy-falsafiy tahlil ostiga olingan. Maqola doirasida antik davr mutafakkirlarining gender munosabatlariga oid qarama-qarshi yondashuvlari, O`rta asrlar G`arb sivilizatsiyasida xotin-qizlar ta`limiga qo`yilgan intellektual cheklovlar hamda jadidchilik harakatida diniy va dunyoviy qadriyatlar muvozanatining shakllanishi kabilar tahliliy o`rganilgan.

**Kalit so`zlar:** Gender tenglik, fenomen, evolyutsiya, antik davr, O`rta asrlar universitetlari, Sharq sivilizatsiyasi, dunyoviylik va diniylik muvozanati, ijtimoiy transformatsiya.

### **Kirish**

XXI asrda global miqyosda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va modernizatsiya jarayonlari jamiyat rivojlanishining barqaror strategiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ushbu strategiyalar markazida inson kapitali va uning uzviy qismi bo`lgan gender tenglik fenomenini hayotga samarali tadbiq etish masalasi turadi. Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy maqomini yuksaltirish, davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlardagi rolini oshirish shunchaki dunyoviy deklarativ tendensiya emas, balki davlat qurishning o`zak tamoyilidir. Biroq, hozirgi kunda qaror topayotgan gender tizimini tubdan tushunish va uning kelajakdagi modellarini to`g`ri shakllantirish uchun mazkur fenomenning tarixiy-falsafiy retrospektivasiga chuqur tahliliy nazar tashlash obyektiv

zaruriyat hisoblanadi. Mazkur ijtimoiy fenomenning tarixiy ildizlarini tadqiq etish, eng avvalo, zamonaviy jamiyat ongiga singib ketgan an'anaviy stereotiplarning genezisini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Zero, xotin-qizlarning ijtimoiy-intellektual salohiyatini cheklovchi qarashlar bugungi kun mahsuli bo'lmay, balki asrlar davomida muayyan sivilizatsiyaviy taqiqlar orqali sun'iy ravishda shakllantirilgan tizim ekanligi tarixiy tahlillar jarayonida o'z isbotini topadi. Ushbu ijtimoiy qonuniyatni mashhur sotsiolog olim Piter Berger "Biz ijtimoiy voqelikni va institutlarni o'zimiz yaratamiz, biroq vaqt o'tishi bilan ular bizga tabiiy va o'zgarmas qonuniyatdek tuyula boshlaydi"<sup>1</sup> degan fikri bilan asoslaydi. Demak, tarixiy tahlil bugungi kundagi gender stereotiplari tabiiy qonuniyat emas, balki asrlar davomida shakllantirilgan ijtimoiy konstruksiya ekanini anglashga yordam beradi.

Shu bilan birga, o'tmish tajribasi dunyoviy integratsiya jarayonlari bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishda muhim metodologik vositadir. Tarixiy saboqlar gender muvozanatiga erishish yo'lida madaniy mentalitetni inkor etgan holda, begona andozalarni mexanik ravishda jamiyatga ko'chirish muqarrar ravishda ichki qarshilik va ijtimoiy reaksiyani keltirib chiqarishini ko'rsatadi.

Eng muhimi, tahlil insoniyat bosib o'tgan intellektual inqirozlardan to'g'ri xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Xususan, O'rta asrlar davridagi akademik cheklovlar umumiy taraqqiyot tendensiyalarini necha asrga ortga surganini anglash, bugungi kunda ayollar ma'rifatparvarligini qo'llab-quvvatlash butun bir millat kelajagini barbod bo'lishidan asrovchi fundamental omil ekanligini tasdiqlaydi. Taniqli sotsiolog va faylasuf Immanuil Vallersteyn ta'kidlaganidek, "Sivilizatsiyalar o'z taraqqiyoti davomida inson kapitalining salmoqli qismini, ya'ni, ayollarni tizimli ravishda ilm va boshqaruvdan uzib qo'yish orqali o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatlarini sun'iy ravishda yarimga qisqartirganlar"<sup>2</sup>. Ushbu fikrdan ham bizga ayon bo'lmoqdaki, o'tmishda xotin-qizlarga

---

<sup>1</sup> Berger, P. L., & Luckmann, T. (1966). *The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge*. Garden City, NY: Anchor Books. – P. 106.

<sup>2</sup> Wallerstein, I. (1974). *The Modern World-System I: Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century*. New York: Academic Press. – P. 233.

qo'yilgan intellektual va akademik cheklovlar nafaqat ma'lum bir jins vakillarining, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyot tezligini pasaytirgan eng katta tarixiy inqiroz bo'lganini falsafiy-sotsiologik jihatdan to'liq tasdiqlaydi.

### Asosiy qism

Qadimgi Yunoniston falsafa va demokratiya vatani hisoblansa-da, erkaklar va ayollar huquqlari masalasida bu yerda adolatsizliklar bo'lgan. O'sha davrda ayollarga nisbatan salbiy ta'riflar berilishining asosiy sababi - ijtimoiy va siyosiy tuzum edi. Antik shaharlarda erkaklar faqat siyosat, boshqaruv va urush bilan shug'ullanganligi, ayollar esa hech qanday haq-huquqsiz, faqat uy ichida, ro'zg'or ishlari bilan cheklab qo'yilganligi hammamizga ma'lum. Jamiyatda hokimiyat butunlay erkaklar qo'lida bo'lgani uchun, xotin-qizlarni kamsitish oddiy holga aylangan. O'sha davrning yirik olimlari ham o'zlari yashagan muhit ta'sirida ayollarni kamsituvchi fikrlarni ilgari surganlar. Antik davrning eng mashhur faylasufi Platon (Aflotun) o'z asarlarida ayol tabiatiga nisbatan quyidagi og'ir ta'rifni keltirib o'tgan. „Ayol tashqi tomondan chiroyli ko'rinadigan, ammo ichidan zaxar sohadigan ilonga o'xshaydi“<sup>3</sup>. Ushbu fikrni bugungi kun nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qiladigan bo'lsak, Platon bu yerda ayolning faqat tashqi go'zalligiga urg'u berib, uni erkak kishining aqliy fikrlashini chalg'ituvchi "xavfli bir kuch" deb baholagan deyishimiz mumkin. Negaki, o'sha davr qarashlariga ko'ra, aql faqat erkaklarga xos, his-tuyg'ular va chalg'ishlar esa ayollarga xos deb bilingan. Shuning uchun ayol kishi teng huquqli inson sifatida emas, balki erkak aqliga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan xavfli obyekt sifatida ko'rilgan. Bu fikr xotin-qizlarni jamiyatdan uzib qo'yishga xizmat qilgani sababli bugungi kun gender tenglik siyosatiga mutlaqo zid deya ayta olamiz.

Platonning shogirdi Aristotel (Arastu) esa bu tengsizlikni tabiat qonuni darajasiga ko'targan. Uning "Ayol kishi faqat nasl qoldirish ya'ni tug'ish funksiyasi uchun yaratilgan, u tabiatning xatosi tufayli mukammal bo'lmay qolgan mavjudotdir"<sup>4</sup> degan xulosalari asrlar davomida ayollarni kamsitish uchun asosiy bahona bo'lib kelmoqda. Bu fikrni tahlil

---

<sup>3</sup> Platon. Davlat / Rus tilidan Sh.Asadov tarjimasini. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – 480 b.

<sup>4</sup> Aristotel. Siyosat (Politika) / Rus tilidan tarjima. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014. – 380 b.

qilsak, Aristotel insonning jamiyatdagi o‘rni va qobiliyatlarini uning shunchaki biologik xususiyatiga qurbon qilganini ko‘ramiz. Ayolni faqat farzand ko‘rish vositasi deb bilish - jamiyatning teng yarmini tashkil qiluvchi xotin-qizlarning aqliy, ilmiy va ijodiy salohiyatini yo‘qqa chiqarish demakdir. Platon va Aristotel kabi olimlarning bu fikrlari shunchaki tarixda qolib ketmadi. Ular asrlar davomida erkaklar ustun bo‘lgan jamiyat tizimining ma’naviy asosi bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham jamiyatimizda uchrab turadigan ``ayol kishining joyi faqat oshxonada`` yoki ``ayoldan rahbar chiqmaydi`` degan salbiy stereotiplarning ildizi aynan o‘sha antik davr qarashlariga borib taqaladi desak mubolag`a bo‘lmaydi.

Biz antik davrning bu buyuk mutafakkirlari va faylasuflarining jahon ilm-fani, falsafasi hamda sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini aslo inkor etmaymiz va ularning ilmiy merosiga qarshi emasmiz. Biroq, ularning xotin-qizlar tabiati va ijtimoiy roli borasida ilgari surgan qarashlari bugungi zamonaviy gender tenglik tamoyillariga va inson huquqlari mezonlariga mutlaqo mos kelmaydi. Asrlar davomida odamlar ongiga singib ketgan ushbu qarashlar bugungi kunda ham jamiyatda xotin-qizlarning to‘laqonli ma’rifat olishi, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishi va o‘z salohiyatini namoyon etishiga psixologik to‘siq bo‘lib, gender tenglikni hayotga real tadbiq etish jarayonlarini sekinlashtirmoqda.

Qadimgi Afinada turmushga chiqqan ayol qonuniy tilda ``Damar`` deb atalgan. Bu so‘z yunoncha tub ma’nosiga ko‘ra, insoniy tushunchani emas, balki "qo‘lga o‘rgatilgan, bo‘ysundirilgan yoki jilovlangan yovvoyi hayvon" degan ma’noni anglatgan.<sup>5</sup> Ya’ni, qiz bola otasining qaramog‘idan erining ixtiyoriga o‘tayotganda, xuddi xonakilashtirilgan uy hayvoni kabi rasmiylashtirilgan. Qizlarning roziligi mutlaqo so‘ralmagan va ular o‘z ismlariga ham ega bo‘lmay, otasining ismiga qo‘shib chaqirilgan.

Antik davrda ayol kishiga nisbatan qo‘llanilgan haqoratomuz "Damar", ya’ni "jilovlangan, bo‘ysundirilgan hayvon" tushunchasi bu shunchaki qadimgi til qoidasi

---

<sup>5</sup> Liddell, H. G., & Scott, R. (1940). *A Greek-English Lexicon*. Oxford: Clarendon Press. – P. 367. (Under the word "δάμαρ" from verb "δαμάζω").

bo'lmay, bugungi kunda ham patriarxal qarashlarga ega bo'lgan jamiyatlar ongida yashab kelayotgan eng xavfli stereotiplarning psixologik poydevoridir deyishimiz mumkin.

Ma'lumki, o'rta asrlarda yevropada mashhur universitetlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Xususan, Bolonya, Parij, Oksford, Kembrij singari universitetlar bo'lgan, biroq, bu muassasalar xotin-qizlar uchun ilm-fan eshiklarini butunlay yopib qo'ygan. O'rta asrlar akademik tizimida universitetlar diniy va huquqiy elitalarni tayyorlaydigan maskan hisoblanib, unga qabul qilinish faqat erkaklarning mutlaq huquqi deb belgilangan. Misol sifatida aytishimiz mumkinki, XIV asrda Parijda yashagan Jaklin Felisi (Jacqueline Felicie) ismli ayol universitetda o'qish huquqi bo'lmasa-da, mustaqil ravishda tibbiyot ilmini o'rganadi va ko'plab bemorlarni muvaffaqiyatli davolagan, ammo, 1322-yilda Parij universiteti Tibbiyot fakulteti uni universitet diplomiga ega bo'lmay turib tabiblik qilganlikda ayblab, sudga berganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan<sup>6</sup>. Sudda uning tibbiy bilimi va odamlarni qutqargani inobatga olinmaydi, aksincha, ayol kishi tabiatan tibbiyot sirini tushunolmaydi, uning davolashi qonunga zid degan qaror bilan unga qat'iy taqiq qo'yiladi va u yirik miqdorda jarimaga tortilgan.

Parij universiteti va sudining "ayol kishi tabiatan tibbiyot sirini tushunolmaydi" degan qarori ayollarni intellektual jihatdan kamsitishni rasmiy qonun darajasiga ko'targan. Bu qaror keyingi asrlarda jamiyat ongiga ayol kishining fikrlashi va idroki murakkab ilmlarni, jumladan, tibbiyot, huquq, falsafa kabilarni tushunishga qodir emas degan o'ta zararli stereotipni muhrlab qo'yganligining guvohi bo'lamiz.

XIX asr oxirida Oksford va Kembrij universitetlarida qizlar uchun alohida kollejlarda ochilishiga ruxsat berildi. Biroq, qizlar erkak talabalar bilan bir xil ma'ruzalarda qatnashib, bir xil qiyin imtihonlarni topshirishsa-da, ularga universitet diplomi va ilmiy darajasi berilmagan. Qizlar universitetning rasmiy a'zosi hisoblanmagan va bitiruv marosimlariga kiritilmagan. Ular shunchaki tinglovchi maqomida qolib ketganlar.

Sharq haqida fikr yuritadigan bo'lsak, O'rta asrlar va undan keyingi xonliklar davrida Sharqda qiz bola mustaqil inson sifatida emas, balki oilaning iqtisodiy bitimlar vositasi deb

---

<sup>6</sup> Post, J. B. (1971). A Medieval Doctor's Dispute and the Royal Prerogative: The Case of Jacqueline Félicie. *Speculum*, 46(1). – P. 143-145.

ko‘rilgan. Qizlarni o‘z roziligisiz, o‘ta yosh ,hattoki,ba‘zan go‘daklik chog‘idanoq, nikohlash yoki qalin puli evaziga sotish odatlari oddiy holga aylangan. Bu amaliyot ayolning nafaqat ta‘lim olish, balki shaxsiy hayotini loyihalash huquqini ham butunlay yo‘q qilgan. Turg‘unlik davri Turkiston jamiyatida qizlarning xat-savod chiqarishi ko‘pincha salbiy holat, ya‘ni axloqsizlikka yetaklovchi yo‘l sifatida baholangan. Ayol kishining vazifasi faqat cheksiz itoatkorlik va ro‘zg‘or mehnati bilan o‘lchanib, uning har qanday intellektual intilishi mutaassib ijtimoiy muhit tomonidan qattiq bostirilgani juda ham ayanchli va keying davrlar uchun ko‘plab noxushliklarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda ham ba‘zi oilalarda qizlarning oliy ma‘lumot olishiga investitsiya kiritishga ikkinchi darajali masala deb qaraladi. Qiz bola baribir birovning hazonasi, o‘qitgandan ko‘ra sepini qilib, tezroq uzatgan ma‘qul" degan yashirin dunyoqarash o‘sha turg‘unlik asrlaridan qolgan vaqtincha mulk falsafasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri aksidir. Bu esa qizlarning inson kapitali sifatida shakllanishini bugungi kunda ham bo‘g‘ib qo‘ymoqda. ``So‘nggi o‘rta asrlardagi turg‘unlik qonunchiligida ayol kishining huquqiy maqomi shunchalik pasaytirilganki, hatto,qozixonalar sudlar va rasmiy bitimlarda ikki nafar ayolning guvohligi faqat bitta erkakning guvohligiga teng deb baholangan``<sup>7</sup>. Ayrim og‘ir jinoiy yoki mulkiy ishlarda esa ayollarning guvohligi mutlaqo inobatga olinmagan. Bu tizimli adolatsizlik xotin-qizlarni o‘z haq-huquqlarini, sha‘nini va mulkini qonuniy himoya qilish imkoniyatidan butunlay mahrum etib, ularni erkaklarning mutlaq tazyiqi va zug‘umi ostida yashashga majbur qilinganligi achhiq haqiqatdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, ayollarning oliy ta‘lim tizimidan chetlatilishi sotsial an‘anaga aylangan bir davr sifatida namoyon bo‘ladi. Polshada ayollar uchun universitet eshiklari yopiqligi sababli turg‘unlikka uchragan Mariya Sklodovskaya-Kyurining hayoti gender tengsizligiga qarshi intellektual isyonning yorqin namunasidir. U Sorbonna universitetida fandagi androtsentrik to‘siqlarni parchalab, ilm-fan tarixida birinchi marta ikki karra Nobel mukofoti sovrindori bo‘ldi. Kyuri fenomeni shuni ko‘rsatdiki, intellektual va ilmiy

---

<sup>7</sup> Fadel, M. (1997). Two Women, One Man: Knowledge, Power, and Gender in Medieval Sunni Legal Thought. *International Journal of Middle East Studies*, 29(2). – P. 185-204.

salohiyat biologik jinsga emas, balki insoniy iroda va erkinlikka bog‘liqdir. Uning akademik doiralardagi tan olinishi gender tengligi harakatiga huquqiy deklaratsiyalardan ko‘ra kuchliroq amaliy poydevor yaratdi. Mariya Kyurining hayotiy falsafasi nafaqat uning shaxsiy g‘alabasi, balki kelajak avlodlar uchun o‘ziga xos manifestga aylandi. Xususan, uning «Men hayotda hech narsadan qo‘rqish kerak emas, uni faqat tushunish kerak deb o‘rgandim. Endi esa ko‘proq tushunishimiz va kamroq qo‘rqishimiz kerak bo‘lgan vaqt keldi»<sup>8</sup> -degan konseptual fikri bugungi global gender siyosatida xotin-qizlarning zamonaviy texnologiyalar, aniq fanlar (STEM) va yirik siyosiy maydonlarga kirib borishidagi asriy qo‘rquv hamda sun‘iy to‘siqlarni parchalashga xizmat qiladi. Jamiyatdagi gender tengsizligi ko‘pincha stereotiplar va fundamental bilimsizlik oqibatidagi qo‘rquvdan vujudga kelishini inobatga olsak, ayol salohiyatini kamsitish emas, balki uni chuqur tushunish va qabul qilish orqali insoniyat o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tariladi. Binobarin, mutafakkirning ushbu da‘vati bugungi kunda ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy cheklolardan ozod etish va ularga faqat inklyuziv imkoniyatlar taqdim etish orqali adolatli jamiyat qurishning ma‘naviy-huquqiy formulasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

An‘anaviy Sharq jamiyatlarida, xususan, qadimgi Xitoyda qiz farzandlarga shaxsiy ism berilmay, ularning sotsiumdagi o‘rni shunchaki raqamlar bilan, belgilanishi insoniy o‘zlikni va irodani butunlay inkor etuvchi eng mudhish tizimli kamsitish hisoblanadi. Insonning individual qadr-qimmatini to‘liq yo‘qqa chiqaradigan ushbu g‘ayriinsoniy amaliyot bugun biz keng targ‘ib qilayotgan zamonaviy gender tenglik siyosatining o‘zak tamoyillariga va fundamental inson huquqlariga mutlaqo zid keladi. Ayol zotini shaxs emas, balki shunchaki ismsiz va vaqtincha bir xo‘jalik resursi sifatida ko‘rishga asoslangan bu qadimgi dunyoqarash gender tenglikni hayotga tadbiq etish yo‘lida bugun ham eng xavfli va yashirin psixologik to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, gender muvozanatiga real erishish uchun faqat dunyoviy qonunlar qabul qilish yetarli emas, balki ayol kishining individual o‘zligini, shaxsiy ismini va irodasini jamiyat

---

<sup>8</sup> Кюри, Ева. Мария Кюри. Пер. с франц. — Москва: Молодая гвардия, 1968. - С. 245.

ongida erkak bilan teng darajada qadrlashni talab etuvchi global ma'naviy islohotlarni amalga oshirish bugungi kunda juda ham ahamiyatli sanaladi.

XX asrning 20-yillari o'rtalarida sovet hokimiyati tomonidan jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalaridan o'z siyosiy manfaatlari yo'lida foydalangan holda Turkistonda radikal "Hujum" kampaniyasi boshlab yuborildi. Mazkur harakatning asosiy maqsadi paranjini ommaviy, shoshilinch ravishda yechish va yoqib yuborish edi.

Ushbu ijtimoiy tajribani tanqidiy tahlil qiladigan bo'lsak, asrlar davomida shakllangan ma'naviy-psixologik tizimni jamiyatning ichki tayyorgarligisiz, qisqa muddatda majburiy o'zgartirishga urinish dahshatli ijtimoiy to'qnashuvni keltirib chiqardi. Jadidlar va sovet faollari da'vati ostida paranjisini tashlagan minglab sodda o'zbek ayollari hamda qizlari o'z oilalari, otalari, aka-ukalari va turmush o'rtoqlari tomonidan nomus, oriyat va dindan chiqish deb baholangan mutaassib qarashlar qurboniga aylanishdi. 1927–1928-yillarning o'zida birgina O'zbekistonda paranji yechgani uchun 2500 dan ortiq ayollar ming afsuski, o'z yaqinlari tomonidan vahshiyona o'ldirib yuborilgan<sup>9</sup>. Bu fojea ayol kishiga o'zining mustaqil tanlov huquqi berilmagani, u bir tomondan sovet mafkurasining siyosiy quroliga, ikkinchi tomondan esa an'anaviy jamiyatning mutaassib oriyat qurboniga aylanganini ko'rsatuvchi eng achinarli tarixiy saboqdir.

Ushbu tarixiy Hujum fojeasidan to'g'ri xulosa chiqargan holda, bugungi kun gender siyosatida xotin-qizlarning kiyinish erkinligi xoh dunyoviy uslubda bo'lsin, xoh diniy - hijob yoki ro'mol masalasiga mutlaqo neytral, bag'rikeng va inson huquqlari mezonlaridan turib yondashish zarur deb o'ylaymiz. Zamonaviy, demokratik va dunyoviy davlat qurish yo'lida har bir fuqaroning vijdon erkinligi hamda kiyinish madaniyati uning fundamental shaxsiy huquqi hisoblanadi. Jamiyatda ayol kishining hijob yoki ro'mol o'rashi qonuniy va dunyoviy tizim uchun hech qanday "ijtimoiy xavf" tug'dirmaydi, aksincha, inson o'zligini namoyon etishining erkin huquqiy ifodasidir deb bimalol ayta olamiz. Kiyinish madaniyatiga berilgan ushbu dunyoviy erkinlik jamiyatda dinni radikal talqin qilishga yoki milliy-ijtimoiy qadriyatlarga daxl qilishga asos bo'lmasligi lozim. Dinning asl mohiyati

---

<sup>9</sup> Kamp, Marianne. (2006). *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism*. Seattle: University of Washington Press. – P. 186-187. (Chapter 7: Resistance and Violence during the Hujum)

tashqi kiyim bilan emas, balki qalb tozaligi, ilmga intilish va yuksak odob-axloq bilan o'lganadi desak to'g'rib bo'ladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Qadimgi davrlarda yashagan yunon olimlarining ayollar haqidagi salbiy fikrlari va O'rta asrlarda Yevropada ayollarning o'qishiga qo'yilgan taqiqlar tarixda ularning qanchalik kamsitilganini ko'rsatadi. Bizning Sharq mamlakatlarida ham xotin-qizlar uzoq vaqt davomida hatto o'z ismiga ega bo'la olmay, jamiyatdan butunlay uzib qo'yilganligi XX asr boshida jadid bobolarimiz ayollarni paranjidan xalos etmoqchi bo'lishdi, lekin bu harakat Hujum davrida minglab begunoh ayollarning fojiali tarzda qurbon bo'lishi bilan yakunlandi. Mana shu o'tmishdagi qonli va og'riqli voqealar bugungi kunda biz erishgan gender tenglik osonlikcha kelmaganini va uni asrab-avaylash naqadar muhimligini eslatib turadi. Afsuski, hozir ham eski qarashlar qoldiqlari tufayli xotin-qizlar rahbarlik, ilm-fan yoki biznes sohasida o'z o'rinlarini topishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun, birinchi navbatda, bog'cha va maktablardan oq qiz bolalarning qobiliyatini cheklaydigan noto'g'ri tarbiya usullaridan voz kechishimiz kerak. Ikkinchidan, qizlar, ayollar zamonaviy IT texnologiyalar va aniq fanlarni yaxshi o'rganishlari uchun davlat tomonidan ko'proq bepul kurslar va grantlar ajratilishi lozim. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayollar huquqlarini himoya qilish xotin-qizlarning haddidan oshishiga yoki jamiyatda erkaklarga past nazar bilan qarashga mutlaqo xizmat qilmasligi kerak. Aksincha, bu jarayon erkak va ayol o'rtasida sun'iy raqobat yaratish emas, balki har ikki jins vakillarini jamiyat va oila farovonligi yo'lida teng huquqli hamkor hamda hamjihat kuchga aylantirishni maqsad qilishi shart.

### **Foydalailgan adabiyotlar**

1. Berger, P. L., & Luckmann, T. (1966). *The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge*. Garden City, NY: Anchor Books. – P. 106.
2. Wallerstein, I. (1974). *The Modern World-System I: Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century*. New York: Academic Press. – P. 233.

3. Platon. Davlat / Rus tilidan Sh. Asadov tarjimasida. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – 480 b.
4. Aristotel. Siyosat (Politika) / Rus tilidan tarjima. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2014 – 380 b.
5. Liddell, H. G., & Scott, R. (1940). *A Greek-English Lexicon*. Oxford: Clarendon Press. – P. 367. (Under the word "δάμαρ" from verb "δαμάζω").
6. Post, J. B. (1971). A Medieval Doctor’s Dispute and the Royal Prerogative: The Case of Jacqueline Félicie. *Speculum*, 46(1). – P. 143-145.
7. Fadel, M. (1997). Two Women, One Man: Knowledge, Power, and Gender in Medieval Sunni Legal Thought. *International Journal of Middle East Studies*, 29(2). – P. 185-204.
8. Кюри, Ева. Мария Кюри. Пер. с франц. — Москва: Молодая гвардия, 1968. - С. 245.
9. Kamp, Marianne. (2006). *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism*. Seattle: University of Washington Press. – P. 186-187. (Chapter 7: Resistance and Violence during the Hujum)